

2021- yil yanvar-aprel oylarida Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi
63,7 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
1489,1 ming so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
1284,3 mld. so'm

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi
54,4 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati
127,3 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati
129,5 %

2021- yil yanvar-aprel


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1284,3 mlrd. so'mga** yetib, uning nominal hajmi **376,8 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **129,5 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida)



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	1284,3	129,5
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	69,9	120,8
Moliyaviy xizmatlar	385,6	126,4
Transport xizmatlari	189,6	125,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>177,2</i>	<i>124,1</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	36,3	126,5
Savdo xizmatlari	344,3	124,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	28,5	144,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	49,4	167,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	22,5	134,0
Ijara xizmatlari	36,3	211,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	31,9	136,6
Shaxsiy xizmatlar	27,2	128,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	27,1	147,3
Boshqa xizmatlar	35,7	130,2

SIRDARYO VILYOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Yashash va ovqatlanish xizmatlari



Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar



Shaxsiy xizmatlar



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Moliyaviy xizmatlar

30,0 %

Savdo xizmatlari

26,8 %

Transport xizmatlari

14,8 %

Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari

5,5 %

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

3,9 %

Ijara xizmatlari

2,8 %

Boshqa xizmatlar

2,8 %



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2021- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **30,0 %** ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **2,5 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmda **31,7 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan - **2,2 %**.

2021- yil yanvar-aprel oylarida yuqori o'sish ijara sohasida (**2,1 m**), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**67,7 %**), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**47,3 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (**44,0 %**) qayd etildi.

Savdo (**24,5 %**) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**20,8 %**) sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining pasayishi kuzatildi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (163,3 %). Me'morchilik sohasidagi xizmatlarda biroz past o'sish kuzatilgan (75,0 %).

SIRDARYO VILYOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **26,8 %** ni tashkil etdi, bu esa **344,3 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **245,7 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmi hajmining **27,1 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2020- y. yanvar-aprel

Xizmatlar hajmi
245,7 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
81,3 %

Ulushi
27,1 %



2021 y. yanvar-aprel

Xizmatlar hajmi
344,3 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
124,5 %

Ulushi
26,8 %

SIRDARYO VILYOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i **67,5 %** ini tashkil etdi.


Savdo xizmatlari tarkibi

(2021- yil yanvar-aprel oylarida)

**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)**



**Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar**



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo ulushi **65,8 %** ga yetdi.



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-aprel oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **385,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **288,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan

- 2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **30,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **31,7 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **97,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **26,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning o'sish sur'ati 163,3 % ga yetgan.



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,3 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **4,3 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-aprel oylarida)

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari moliyaviy
xizmatlar**

**Sug'urta bo'yicha
xizmatlar**

94,3 %

4,3 %

1,4 %

Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **94,0 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,7 %** ga to'g'ri kelgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida)

2020- y. yanvar-aprel

56,1
mlrd. so'm

116,3 %

6,2 %

2021 y. yanvar-aprel

69,9
mlrd. so'm

120,8 %

5,5 %



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**28,7
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**49,4
mlrd. so'm**

**2020- y.
yanvar-
aprel**



**2021- y.
yanvar-
aprel**

81,9 %

O'sish sur'atlari, % da

167,7 %

2021- yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **49,4** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **3,9 %** ni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **167,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-aprel oylarida xizmatlar hajmi **28,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish **81,9 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlamanagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

25,0

36,3

2020- y.
yanvar-aprel

2021- y.
yanvar-aprel



O'sish
sur'ati, % da

76,3

126,5

2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **11,3** mlrd. so'mga ortdi.



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

92,7 %

2021- y. yanvar-aprel

7,3 %

6,2 %

93,8 %

2020- y. yanvar-aprel

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **92,7 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilda ularning ulushi **93,8 %** ni tashkil etgan.

15

Sirdaryo viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi
 bu – sog'lijni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y. yanvar-aprel

2021- y. yanvar-aprel

15,5
mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

22,5
mlrd. so'm

95,1 %

O'sish sur'ati

134,0 %

1,7 %

Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi

1,7 %



SIRDARYO VILYOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-aprel oylarida)



2021- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulush Guliston shahriga tegishli - **46,0 %** (2020- yilda **45,6 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Oqoltin tumani **2,9 %** (2020- yilda **2,9 %**) qayd etildi.

SIRDARYO VILYOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Sirdaryo viloyati	1284,3	129,5	101,8
<i>shaharlari:</i>			
Guliston sh.	591,0	130,5	121,8
Shirin sh.	44,1	130,8	86,4
Yangiyer sh.	95,4	124,1	87,7
<i>tumanlari:</i>			
Boyovut	70,5	129,0	78,0
Guliston	50,5	127,8	86,8
Mirzaobod	63,1	120,6	93,0
Oqoltin	37,6	128,7	84,8
Sardoba	41,0	120,3	75,3
Sayxunobod	52,0	121,6	43,9
Sirdaryo	172,6	135,2	86,4
Xovos	66,5	138,1	87,4

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

**1489,1
ming so'm**

**419,0 ming
so'mga**

2021- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1489,1** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **127,3 %** ni tashkil etdi.

O'sish sur'ati

127,3 %

Taqqoslash uchun: 2020-yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1070,1** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

10140
birlik

1068
birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

111,8 %

63,7 %

2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi


Ularning umumiyligi sonidagi ulushi

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **63,7 %**, sanoat **13,5 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **12,9 %** ga yetdi. Qurilish sohasi **9,9 %** ga to'g'ri keladi.

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **64,3 %**, sanoat **13,0 %**, qurilish **9,7 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **13,0 %** ni tashkil etgan.

SIRDARYO VILYOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-aprel oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **54,4** % ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

1- may holatiga

2021- y.

2020- y.

80,0 %

76,6 %

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **80,0** % ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 67-236-86-36